

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA GULMIRA ZAYNIDDINOVNA

O‘ZBEK TILIDA PLEONASTIK BIRLIKLARNING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.01– O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Bozorova Gulmira Zayniddinovna

O‘zbek tilida pleonastik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari 5

Бозорова Гулмира Зайниддиновна

Лингвопрагматические особенности плеонастических единиц в узбекском языке 21

Bozorova Gulmira Zayniddinovna

Linguistic and pragmatic features of pleonastic units in the Uzbek language..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications 47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA GULMIRA ZAYNIDDINOVNA

O‘ZBEK TILIDA PLEONASTIK BIRLIKLARNING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.01– O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net/uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abuzalova Mehriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/04 06.2021.Fil 72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 24 mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11.Tel: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail buxdu_rektor@buxdu.uz)

1/1332 raqami bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol qo'chasi, 11-uy. Tel: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» mart kuni tarqatildi.

(2023-yil «11» mart dagi 103 -raqamli reyestr bayonnomasi)


G.N. Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi / Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Gaybullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi / Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Y.S.Saidov
Ilmiy darajalar beruvchi / Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda til nazariyasi rivojining hozirgi bosqichida jamiyat va inson leksik zaxirasida tilning hozirgi holatini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nutqiy muloqotga ta'sir qiluvchi pleonazm (ma'nodosh ifoda vositalarining semantik jihatdan takror holda qo'llanishi)larning paydo bo'lish sabablarini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi pleonastik birliklarni lingvopragmatik, psixolingvistik, kognitiv ma'no nazariyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish, shuningdek, og'zaki va yozma nutqda mavjud pleonazmlarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi kognitiv semantika va kommunikativ pragmatika yo'nalishiga mos ravishda olib borilayotgan tadqiqotlarning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi umumiy tendensiyalarni aks ettirganligi bilan belgilanadi.

Dunyo tilshunosligida lisoniy nazariy qarashlarda tavnologiya va pleonazmlarning tarkibiy va semantik turlari hamda hodisa fenomenini o'rganishda semantik, stilistik, sintaktik, formal grammatik, frazeologik, leksikografik, pragmatik kabi bir nechta yondashuvlar mavjud. Zamonaviy globallashgan tilda juda ko'p faol va tez-tez ishlatiladigan nutq shakllari mavjudki, ular orasida pleonazm eng keng tarqalgan va ayni paytda, o'rganilishi lozim bo'lgan lingvistik hodisalardan biri sanaladi. Shunday bir davrda pleonazm hodisasini tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi asosida lingvopragmatik aspektda tadqiq etish masalasi bugungi kun uchun ijtimoiy zaruratdir.

Hukumatimizning o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirishga muttasil va muntazam e'tibori bilan tilshunoslik mohiyatiga, taraqqiyotiga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish"¹ lozimligi to'g'risida bejizga ta'kidlamagan edi. Ayniqsa, tilda mavjud pleonastik qo'llanishlarni o'rganish hamda bu hodisa bilan bog'liq ekspressiv xususiyatlarni tadqiq etish o'zbek tilshunosligining hozirgi kundagi munozarali va dolzarb masalalaridan biridir. Jamiyatimizda ommaviy axborot vositalarining roli faollashgan bugungi kunda adabiy me'yor qoidalariga rioya etish har bir til uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega: ma'lum bir qolipga keltirish natijasida tilda doimo sodir bo'lib turadigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik o'zgarishlardan yuzaga keluvchi buzilishlarning oldi olinadi. Ammo ayrim nutqiy vaziyatlarda konnotativ ma'no ifodalash maqsadida til birliklarining orttirib qo'llanish holatlari ham mavjudki, bunday o'rinlarda uslubiy, pragmatik funktsiya bajarish ko'zda tutiladi, bunday kontekstlarda til ifodalarini ortiqcha qo'llashdan ko'zlangan maqsad qay darajada ekanligi muhim ahamiyatga ega, bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// 2019-yil 21-oktabr.

PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pleonazmlar tilda xilma-xilligi va keng tarqalganligi sababli o‘rganish uchun ham juda qiziq bo‘lgan lingvistik hodisa hisoblanadi. Jahon tilshunosligida tildagi ortiqchalik masalasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan, mazkur hodisa an‘anaviy ravishda nutq me‘yoringa buzilishi, o‘rinsiz takrorlardan biri sanalib kelingan, biroq ayrim tadqiqotlarda, jumladan, G.F.Blagova, G.D.Adjibekova, M.I.Adilov kabilar tomonidan pleonastik qo‘llanishlarning til tizimidagi o‘rni masalalari turkiyshunoslikda²; A.N.Buruxin, V.A.Vinogradov, O.Y.Lyaxovetskaya kabi olimlar qarashlarida pleonazm turlari, yondosh hodisalarga munosabati, individual pleonazmlar rus tilshunosligida³ muhokama etildi, o‘zbek tilshunosligida esa M.Turobova, Q.Sharipova, R.Qo‘ng‘urov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, J.Eltazarovlar tomonidan tejamlilik tamoyilining amal qilish qonuniyatlari, ortiqchalik tamoyili esa N.Mahkamov, B.Sheronov, K.Nazarov, A.Pardayev, Z.Rasulovlar tomonidan monografik planda tadqiq etilgan⁴.

² Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальный плеоназм в сравнительно-историческом и ареально-лингвистическом освещении // ВЯ. 1968. №6.; Аджибекова Г.Д. Место плеоназмов в системе средств языковой избыточности (на материале современного казахского языка) // СТ. 1. 1982. –С. 51-61. Адильов М.И. Система повторов в азербайджанском языке: Автореф. канд. дисс. Баку, 1968. -56 с.

³ Бурухин А.Н. Специфика функционирования плеоназмов в индивидуальном лексиконе: Дисс. ... канд. филол.наук. 10.02.19. Курск, 2013. – 168 с.; Виноградов В.А. Плеоназм. Редупликация. Тавтология // Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: 1990. - 685 с.; Ляховецкая О.Я. Виды плеонастических выражений в разноструктурных языках// Семантические процессы и их проявление в языках разного типа. - Саратов, 1985. - С. 101-105.

⁴ Тurobova M. Ўзбек шеваларида синтактик плеоназмлар// ЎТА. 1982. 5-сон.; Гулямов А. О некоторых особенностях аффиксов с уменьшительно-ласкательным значением в узбекском языке // Научные труды ТашГУ. Вып. 264. 1964.; Назаров К. Эгалик аффиксларининг -иси формаси хақида// Научные труды ТашГУ. Вып. 202. 1962.; Шарипова Қ. Словообразующие аффиксы -лик, -ли, -чилик в узбекском языке: Автореф. канд. дисс. Ташкент, 1972.; Қўнгуrow P. Субектив бахо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент, 1980.; Нурмонов А. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари: Филол. фан.канд. ...дисс. – Тошкент, 1973. – 182 б.; Махмудов Н. Эллиписис в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1978. – 20 с.; Элтазаров Ж. Усечение в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 1992. – 21 с.; Элтазаров Ж. Тилдаги тежамlilik тамойили ва қискарув. – Самарканд: САМДУ, 2004. – 111б.; Махкамов Н. Аффиксальный и лексико-аффиксальный плеоназм в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 19 с.; Махкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. – 95 б.; Шеронов Б. Ўзбек тили гап курилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ТАИ, 1996. – 21 б.; 95.Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент: ТАИ, 2017. 77 б.; Расулов З. Нутқий тузилмалар ахборот-

Biroq o‘zbek tilshunosligida pleonazm hodisasining qo‘llanish o‘rinlari, sotsial xoslanish masalalari, uslubiy qo‘llanishdagi farqli jihatlari, lingvopragmatik xususiyatlari tilshunosligimizda hozirga qadar monografik jihatdan o‘rganilmaganligi sabab, asosiy e‘tiborimizni mazkur hodisani o‘rganishning lisoniy-uslubiy tahliliga qaratamiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020-2024-yy) yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pleonazmlarning semantik va pragmatik jihatlarini ekstralingvistik asoslarda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: tilshunoslikda mavzu doirasida mavjud tadqiqotlarni o‘rganib, pleonazm haqidagi ma‘lumotlarni hamda nazariy qarashlarni tizimlashtirish;

pleonazmga o‘xshash nutqiy ortiqchaliklarni mazmun va qurilishi hamda ortiqchalik mezoni bo‘yicha aniqlash, ularning farqlovchi (differensial) belgilarini tavsiflash;

tanlangan pleonastik tuzilmalarning semantik tahlilini amalga oshirish;

ortiqchalik mezoni asosida soha pleonazmlarining tasnifini keltirish;

pleonastik birliklarning matniy vazifalarini, perlokutiv xususiyatlarini pragmatik asoslarda izohlash;

ma‘lum bir muloqot sharoitida so‘zlovchi tomonidan pleonastik ifodaning tanlanishini belgilovchi omillar tahlilini berish;

o‘zbek tili pleonastik birliklarining qisqacha izohli lug‘atini yaratish.

Tadqiqotning obyekti qilib diskursdagi pleonastik ifodalar olingan.

Tadqiqotning predmetini badiiy, davriy nashr materiallari, internet tizimidagi sahifalar, lug‘atlardan hamda o‘zbek jonli so‘zlashuvidan olingan pleonastik birliklarning uslubiy, kognitiv semantik, lingvopragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, sinxron, qiyoslash, statistik, pragmatik, kombinator-semantik, mantiqiy-semantik va sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pleonazm va unga yondosh lisoniy hodisalar – bu intensiyalarning to‘liq (tavnologiya, reduplikatsiya, dittalogiya, antiellipsis, izosemiya, perissologiya, sintaktik parallelizm) yoki qisman (pleonazm) takrorlanishi mavjud bo‘lgan eksplikatsiya birikmalari ekanligi aniqlangan;

diskursdagi pleonazmlar sohaviy (maishiy, ilmiy, siyosiy, tibbiy, badiiy nutqdagi) guruhlarga ajratilib, ularning leksik-semantik, lingvopragmatik psixolingvistik, kognitiv ma‘no nazariyasi, kommunikantlar haqida umumiy ma‘lumot (kommunikantlarning vaqtini va harakatlarini tejash funksiyasi); so‘zlovchi til malakasining yetarli emasligi (fatik yoki muloqotni o‘rnatish

funksiyasi); soʻzlovchining nutq paytidagi affektiv holati (fatik funksiya) asoslangan;

soʻzlovchining pleonastik birlikni tanlashi omillari: a) antropologik jihatdan matn semantik tuzilishidagi funksiyalari iyerarxiyasini oʻrnatish, eʼtiborni xabardagi asosiy narsaga qaratish, hissiy va estetik taʼsirni kuchaytirish; b) kommunikativ akt holatining oʻziga xos xususiyatlarini amalga oshirish; d) pleonazmning sintaktik qurilmada har qanday illokutiv funksiya bajarishi asosida dalillangan;

lingvopragmatik tahlil orqali oʻzbek tilida pleonastik birliklarning ikki xil mavqeda: ortiqcha birlik – nutqiy kamchilik sifatida; nutqni toʻldiruvchi birlik – aniqlik, kuchaytirish, taʼkid maʼnolarini beruvchi vosita sifatida voqelanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

semantik tadqiqotlarning nazariy asoslari belgilab chiqilgan, tavnologiya va pleonazmni oʻrganishga oid adabiyotlar haqida umumiy maʼlumot berilgan;

dissertatsiya materiallari nutqiy ortiqchalikning estetik imkoniyatlari, illokutiv, milliy-etnik xususiyatlarini lingvopragmatik, psixolingvistik jihatdan oʻrganishda, nutqda tejamlilik va ortiqchalikning dialektik birligi muqarrarligi asosida biri ikkinchisining amal qilishiga yoʻl ochishini koʻrsatib berishda muhim manba boʻlib xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot natijalari asosida oʻzbek tilida keng qoʻllanishda boʻlgan pleonazmlarning qisqacha lugʻati ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oʻrganilgan materiallarning respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qoʻyilganligi, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, lingvopragmatik, sotsiologik, qiyoslash, pragmatik, kombinator-semantik, mantiqiy-semantik tahlil usullari orqali dalillanganligi, OAV materiallari asosida tahlil hamda talqin qilinganligi bilan belgilanadi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilib, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. mnm

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nutqiy ortiqchaliklarning sotsio va lingvopragmatik xususiyatlari aniqlanganligi va shu asosda ilmiy qarashlar bayon etilganligida koʻrinadi. Tadqiqot uslubiyatga oid izlanishlar uchun muhim nazariy manba boʻla oladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan oliy oʻquv yurtlari filologiya yoʻnalishi boʻyicha yaratilayotgan matn lingvistikasi, nutq madaniyati, oʻzbek tili uslubiyati fanlaridan maʼruzalar oʻqish, “Lingvopragmatika asoslari” oʻquv kurslarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ish materiallaridan oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar, ilmiy risolalar hamda amaliy tavsiyalar yaratish hamda soha xodimlari uchun pleonastik birliklar lugʻatini tuzish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pleonastik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

pleonazm va unga yondosh lisoniy hodisalar – bu intensiyalarning to‘liq (tavtologiya, reduplikatsiya, dittalogiya, antiellipsis, izosemiya, perissologiya, sintaktik parallelizm) yoki qisman (pleonazm) takrorlanishi mavjud bo‘lgan nazariy xulosalardan A-OT-2021-2 raqamli «Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 20-dekabrda 04-04/01-2697-son ma‘lumotnomasi). Natijada tibbiyot sohasida qo‘llanadigan pleonastik ifodalarning lisoniy xususiyatlari, pragmatik jihatlari dalillangan;

diskursdagi pleonazmlar sohaviy guruhlarga ajratilib, ularning leksik-semantik, lingvopragmatik psixolingvistik, kognitiv ma‘no nazariyasi, kommunikantlar haqida umumiy ma‘lumot, so‘zlovchi til malakasining yetarli emasligi, so‘zlovchining nutq paytidagi affektiv holati kabi ilmiy natijalardan OT-F1-002-Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” nomli fundamental loyiha doirasida (2017-2020-yy.) belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda amalda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 10-yanvardagi 04-04/01-79-son ma‘lumotnomasi). Natijada so‘zlovchi tomonidan ifodalanayotgan birliklarning diskursda namoyon bo‘lishiga turli psixologik, antropologik omillarning ta’siri ahamiyatli ekanligi inobatga olingan;

so‘zlovchining pleonastik birlikni tanlashi omillari: a) antropologik jihatdan matn semantik tuzilishidagi funksiyalari iyerarxiyasini o‘rnatish, e‘tiborni xabardagi asosiy narsaga qaratish, hissiy va estetik ta’sirni kuchaytirish; b) kommunikativ akt holatining o‘ziga xos xususiyatlarini amalga oshirish; d) pleonazmning sintaktik qurilmada har qanday illokutiv funksiya bajarishi asosidagi ilmiy qarashlardan Buxoro viloyat televideniya kompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” nomli ko‘rsatuvlari va Buxoro radiosining “Til – millat ko‘zgusi” nomli radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-dekabrda 1/327-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarning ilmiyligi va ommabopligi oshib, aholining bilim darajasi oshishiga yordam bergan;

lingvopragmatik tahlil orqali o‘zbek tilida pleonastik birliklarning ikki xil mavqeda: ortiqcha birlik – nutqiy kamchilik sifatida; nutqni to‘ldiruvchi birlik – aniqlik, kuchaytirish, ta’kid ma’nolarini beruvchi vosita sifatida voqelanishi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasining «Nilufar» nomli yosh ijodkorlar to‘garagi mashg‘ulotlari materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi 2022-yil 19-dekabrda №31 ma‘lumotnomasi). Natijada badiiy nutqda uchraydigan pleonastik birliklarning pragmatolingvistik tahlili nasr va nazmda ijod qiluvchi yosh ijodkorlar uchun nazariy manba vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 12 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, jami 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilanadi. Dissertatsiya mavzusining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etiladi. Erishilgan natijalar asosida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek tili sintaktik qurilmalarida pleonazmning o'rnini masalalari**" deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi bo'limi pleonastik birliklarning lisoniy mavqeyi va o'rganilish tarixini yoritishga bag'ishlanadi. Ushbu bo'limda jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan pleonazmga berilgan turli mazmundagi ta'riflari keltiriladi va munosabat bildiriladi. Dissertatsiyada ortiqchalik tamoyili asosida shakllanuvchi pleonazm hodisasining o'rganilish tarixi bosqichma-bosqich tadqiq etilgan.

Pleonazm haqidagi dastlabki qarashlarni antik davr olimlari ijodida uchratish mumkinki, faylasuflar tomonidan nutqiy ortiqchalik, xususan, pleonazm hodisasi ritorika va stilistika doirasida o'rganilganligini qayd etish mumkin. Mantiqda mazkur hodisa tushunchaning axborotga ega bo'lmagan noto'g'ri qismi sifatida qaralgan. Antik davr namoyandalari pleonazmning kommunikativ qiymatini turlicha baholashgan, jumladan, pleonazmni qadimgi rim notiqchilari Mark Fabiy Kvintilian, Eliy Donat hamda Diomedlar stilistik kamchilik sifatida nutqda so'zlarning ortiqcha qo'llanishi, deb qarashgan bo'lsa, ularga qarama-qarshi tarzda grek notig'i Dionis Galikarnasskiy nutqni to'ldiruvchi omil sifatida e'tirof etadi. Bir qarashda ortiqchadek tuyulsa-da, ayni damda, nutqni aniqlik, ishonch, pafos hamda ritm bilan boyitadi, deya ta'kidlab o'tadi⁵.

Rus tilshunosligiga dastlab "pleonazm" atamasi XVIII asrda notiqchilarning tomonidan ekspressivlikni ta'minlovchi shakl sifatida qabul qilingan. Faqat XIX asrga kelibgina ortiqchalik tamoyilini o'rganishning metodologik asoslari paydo bo'la boshladi. Tilshunoslikdagi aksariyat tadqiqotlarda ularning semantik ahamiyati tan olinadi va ularning informativ xususiyatli turli modellari taklif qilinadi. XX asrda pleonazm hodisasi tilshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda, jumladan, mantiq bilan aloqada: Y.D.Apresyan (1989), L.Y.Vitgenshteyn (1994); semantik jihatdan: A.M.Bushuy (1973), M.V.Nikitin (1983), L.K.Raxmankulova (1985), A.Veirzbikki (1987); stilistik jihatdan: O.S.Axmanova (1966), A.P.Yevgenyeva (1963), I.B.Golub (2002) tomonidan

⁵ Кокенева З., Бердалиева Т., Чумбалова Г. Плеоназм в медицинской лексике // Вестник КазНМУ, №3(2)-2014. –С. 107.

tadqiq qilingan⁶. Shuningdek, mazkur faslda tilshunoslikdagi o‘xshash ikki hodisa – tautologiya va pleonazm – talqini tadqiqotchilar tomonidan ikki yoqlama talqin qilingani yoritilgan bo‘lib, bir guruh olimlar pleonazm va tautologiyaga bir xil hodisa sifatida qarashsa, boshqa guruh izlanuvchilar esa bu ikki hodisa o‘rtasidagi farqli jihatlarni tadqiq etishgani qiyosiy tahlil qilingan. Y.D.Apresyan, A.N.Buruxin, Y.L.Vilinbaxova, N.A.Gerasimenko, I.B.Golub, M.X.Iyevleva, O.A.Zayts, T.S.Ostopenko, L.S.Polyanskaya, L.K.Raxmankulova, M.Galani, A.Graur, A.Vierzbicki kabi tilshunoslar o‘zlarining tadqiqotlarida tautologiya va pleonazm hodisasini sinxron tahlil etishgan bo‘lsa, F.I.Buslayev, N.I.Grech, A.P.Yevgenyeva, G.Paul, A.A.Potebnya singari olimlar bu ikki hodisani diaxron planda tadqiq etishgani aniqlangan. Mazkur ikki hodisa haqidagi lingvistik qarashlar umumlashtirilib, tautologiya va pleonazmning chegarasini aniqlash uchun substantsial asosda dialektik tamoyillarga tayangan holda xulosa chiqarish, yondashish taklif etilgan. Tautologik birliklardagi takroriylik shakllar orqali yaqqol ko‘zga tashlanib turadi: *gap gapirmoq*, *so‘z so‘zlamoq* singari. Pleonazm hodisasi esa tamoman mazmuniy xarakterga ega bo‘lib, takroriylik semantik qavatlanish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda birliklar grammatik jihatdan shaklan aynan bir xil bo‘lmasa-da, mazmunan biri ikkinchisi bilan deyarli bitta ma‘noni ifodalab keladi. Masalan, *qari chol*, *maxfiy sir*, *ilk premyera* kabi.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi **“Pleonazmning o‘zbek tili lisoniy tizimidagi o‘rni”** deya nomlangan. Turkiyshunoslikda ilk marta G.F.Blagova o‘z maqolasida⁷ turkiy tillardagi affiksial pleonazmni qiyosiy-tarixiy va areal-lingvistik asoslarda tahlil qilgani qayd etilgan bo‘lib, ba’zi turkiyshunoslar tilshunoslikning u yoki bu sohasini o‘rganishga bag‘ishlagan ishlarida (N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, E.V.Sevortyan, N.A.Baskakov, A.G‘.G‘ulomov, S.K.Kenesbayev, M.I.Odilov, K.A.Nazarov, B.O‘rinboyev, A.Bolganbayev, A.Najimov, K.Sharipova va boshqalar) pleonastik qo‘llanish haqida ham yo‘l-yo‘lakay fikr yuritishgani yoritilgan⁸. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘urov, N.Mahkamov, B.Sheronov, O.Tojiyev, J.Eltazarov, R.Yusupova, F.Ibragimova, Z.Rasulovlar tomonidan lisoniy ortiqchalikning turli aspektlarda o‘rganilgani, xususan, pleonazm hodisasining struktur, leksik-semantik, lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgani qayd etilgan.

⁶ Апресян Ю. Д. Тавтологические и контрадикторные аномалии [Текст] / Ю.Д. Апресян // Логический анализ языка. Проблемы интенциональных и прагматических контекстов: сборник статей. – М.: Наука, 1989. – С. 186 – 196.; Витгенштейн Л.С. Логико-философский трактат [Текст] / Л.С. Витгенштейн ; составл., вступ. статья, примеч. М. С. Козловой ; перевод с нем. М.С. Козловой и Ю.А. Асеева // Философские работы: В 2 ч. – М.: Гнозис, 1994. – Ч. 1. – 520 с.; Бушуй А.М. Лингвистическая тавтология и её лексикографическая кодификация [Текст] : автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 / Анатолий Михайлович Бушуй ; [Самарканд. гос. ун-т]. – Самарканд, 1973. – 29 с.; Никитин М.В. Лексическое значение в слове и словосочетании [Текст] / М.В. Никитин. – Владимир: Изд-во ВГПИ, 1974. – 222 с.; Рахманкулова Л.К. Тавтологические конструкции в современном английском языке: (Функциональный аспект) [Текст]: дис. ... канд. филол. наук / Рахманкулова Людмила Кузьминична. – Л.: ЛГПИ, 1984. – 172. с.; Wierzbicka A. Boys will be boys: «Radical semantic» vs. «Radical pragmatics» [Текст] / A Wierzbicka // Language. – 1987. – №1. – P. 95 – 114.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов [Текст] / О.С. Ахманова. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.; Евгеньева А.П. Очерки по языку русской устной поэзии в записях XVII – XX века [Текст] / А.П. Евгеньева. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1963. – 348 с.; Голуб И.Б. Русский язык и культура речи [Текст]: учебное пособие / И.Б. Голуб. – М.: Логос, 2002. – 432 с.

⁷ Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальный плеоназм в сравнительно-историческом и ареально-лингвистическом освещении / Г.Ф. Благова// Вопросы языкознания. М.– 1968. – №6. – С. 81 – 97.

⁸ Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 6.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi «**Pleonazm va unga yondosh hodisalar**» deb nomlanadi. Mazkur bo‘limda pleonazm, shuningdek, unga yondosh bo‘lgan, uning nomini keltirish bilan assotsiativ voqelanadigan, takroriylikka asoslanadigan tautologiya, perissologiya, antiellipsis, reduplikatsiya, dittalogiya, izosemiya kabi hodisalar izohlangan bo‘lib, ularning barchasi nutqiy ortiqchalik sanalsa-da, mohiyatan bir-biridan farqlanadi (1-rasm).



1-rasm. Pleonazm va unga yondosh hodisalar

Tautologiya shakl bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, so‘zning tarkibiy qismlarida takrorlanish kuzatiladi: *so‘z so‘zlamog, gap gapirmog* kabi. Pleonazm bundan farqli o‘laroq, leksema semalarining qavatlanishi demakdir: *maxfiy sir, bepul sovg‘a...* Reduplikatsiya va takroriy so‘zlarning lug‘atlardagi ta‘rifidan ko‘rinadiki, ikkalasi deyarli bir xil hodisaga ishora qiladi, faqat reduplikatsiya takroriy so‘zlarni hosil qilish usuli hamda grammatik ma‘no ifodalavchi vosita sifatida qayd etiladi. Ushbu ikki hodisa ham tautologiya singari shakl takroriga tayanadi.

Shuningdek, Yevropa lug‘atlarida dittalogiya hodisasi ham so‘zlarni aynan takrorlash sifatida ta‘riflangan. Yondosh hodisalardan pleonazmga yaqin turadigani perissologiyadir.

Perissologiya gapda pleonazmning ko‘pligi yoxud ma‘lum bir matnda ma‘noni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlardan ortiqcha so‘zlarning uchrashi holati bilan baholanadi. Pleonazmdan farqi perissologiya shunchaki mazmuniy qavatlanish emas, balki gapda haddan ziyod ortiqcha so‘zlarning qo‘llanishidir. Shu sababdan, manbalarda faqatgina nutqiy kamchilik sifatida qayd etiladi. Pleonazm esa diskursda ekstralingvistik vazifa bajarib kelish xususiyatiga ega.

Ortiqchalik tamoyili o‘zining zidi tejamkorlik, ya‘ni iqtisod tamoyili bilan oppozitiv xarakterda gavdalangani kabi pleonazm ham o‘ziga qarama-qarshi turuvchi bir qator hodisalar bilan dialektik munosabatda yuzaga chiqadi. Jumladan, ellipsis, gapologiya, implitsitlik kabi hodisalar tahlili uning aksi sifatida

shakllanuvchi pleonazm hodisasining mohiyatini chuqurroq anglashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Pleonazmning diskursda qo‘llanish xususiyatlari”** deya nomlanadi. Mazkur bobda o‘zbek tili diskursida uchraydigan pleonastik birliklar mazmuniy jihatdan guruhlariga ajratib tasniflangan: 1.Maishiy nutqda pleonazm. 2.Siyosiy nutqda pleonazm. 3.Ilmiy nutqda pleonazm. 4.Badiiy nutqda pleonazm. 5.Tibbiy pleonastik birliklar.

Ikkinchi bobning dastlabki bo‘limi **“Maishiy nutqda pleonazm”** deb nomlangan bo‘lib, kundalik turmush faoliyati natijasida yuzaga chiqadigan maishiy nutqda uchraydigan pleonastik birliklar leksik-semantik, sotsiolingvistik, lingvopragmatik tahlil qilingan. Ishda *bo‘sh vakansiya, ilk premyera, birinchi debyut, ichki interyer, qo‘shimcha bonus, servis xizmati, shou-tomosh, tezyurar ekspress, sochlar depilyatsiyasi* kabi birikmalarning bir komponenti chet tillardan o‘zlashgan so‘zdan tashkil topganligi, aksariyat hollarda, o‘zlashgan so‘zlarning asl mohiyatini, tarjimasini to‘la bilmaslik natijasida yoxud e‘tiborsizlik oqibatida nutqimizda shu kabi pleonastik birliklar qo‘llanib kelayotgani xususida xulosalar berilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi **“Siyosiy nutqda pleonazm”** deya nomlangan. Mazkur bo‘lim pleonastik birliklarning siyosiy nutqda qo‘llanishi masalasiga bag‘ishlanadi. Siyosiy nutq “siyosiy muhokamalarda qo‘llaniladigan barcha nutq harakatlarining, shuningdek, an‘analar bilan yoritilgan va tajriba bilan sinovdan o‘tgan davlat siyosati qoidalarining yig‘indisini”⁹ tashkil qiladi. Siyosiy nutq muloqotning institutsional turiga tegishli. Institutsional nutq deganda, davlat muassasalarida olib boriladigan nutq tushuniladi, muloqot muayyan tashkilotning ajralmas qismi hisoblanadi. Siyosiy nutq davlatning, siyosiy tuzumning ajralmas bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, aksariyat hollarda siyosat tili takrorlar va ortiqchaliklardan xoli tarzda voqelanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ba‘zi hollarda jamoatchilikka fikrni aniqroq yetkazish, tinglovchilarning e‘tiborini ifodalayotgan tushunchaning muayyan xususiyatlariga qaratish maqsadida semantik takrorlar uchray turadi: *umumxalq referendumi, fundamental asos, diniy konfessiya, inqilobiy to‘ntarish* kabi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo‘limi **“Ilmiy nutqda pleonazm”** deya nomlanadi. Ilmiy nutq ma‘lum bir soha yo‘nalishida turli bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida voqelanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ba‘zi o‘rinlarda pleonastik birliklarga duch kelish mumkin. Ilmiy nutqdagi pleonastik birliklarning qo‘llanishi siyosiy nutq shaklida qo‘llanadigan semantik takrorlar singari nisbatan chegaralangan. Chunki ilmiy nutq nazariy va amaliy yechimlar, ilmiy xulosalar o‘z aksini topadigan nutq shaklidir. Mazkur sohada pleonastik birliklarning qo‘llanishi bevosita o‘zlashma qatlamga mansub ilmiy atamalarning lug‘aviy ma‘nolariga e‘tiborsizlik yoxud bilmaslik bilan izohlanadi: *CD-disk, yakuniy xulosa, eksperimental sinov, atmosfera havosi...*

Ikkinchi bobning **“Badiiy nutqda pleonazm”** deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida mazkur nutqdagi pleonastik birikmalarning pragmalingvistik xususiyatlari, lisoniy ortiqchalikning qo‘llanish sabablari va omillari yoritilgan. Lingvistik jihatdan pleonazmga ortiqchalik, semantik takror sifatida qaraladi,

⁹ Баранов А.Н., Казакевич Е.Г. Парламентские дебаты: традиции и новации. М.: Знание, 1991. - С. 91.

ammo badiiy nutqda qo‘llangan pleonastik birliklar shunchaki nutqiy takror emas, balki badiiy matnni boyituvchi adabiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Poetik nutqda vazn va qofiya talabidan kelib chiqib qo‘llansa, nasriy matnda tasvirlanayotgan syujet yoxud holatga aniqlik kiritish, ta’kidni kuchaytirish, asosiy e’tiborni o‘sha birlikka qaratish kabi uslubiy vazifalarni bajarib keladi. Masalan, quyidagi Muhammad Siddiq (Rahmatov)ning “Kiprigingdan uzilgan ko‘zyosh” to‘plamiga kiruvchi “Pahlavon onam” she’rida pleonastik birikmani uchratish mumkin:

*Oh, onam-a, pahlavon onam,
Ajdarhoni yenggan tikib jon.
Kesovlarni qilichday tutgan,
Uzmoq uchun menga kulcha non¹⁰.*

Kulcha - (forscha – doirasimon yog‘li non; kulcha) tandirda yopilgan kichkina dumaloq non¹¹. Mazkur izohdan *kulcha* so‘zining o‘zidan uning non mahsuloti ekanligi anglashiladi. She’riy parchada muallif tomonidan tasviriy vosita sifatida qofiya talabidan kelib chiqib ushbu pleonastik birikma qo‘llanilgan. Yoki:

*Oppoq qordek daftar betiga
She’r yozarkan bo‘lib behad shod,
Xayol qanot bog‘lab otiga,
Sizga tomon uchdi aylab yod,
Undan sizga yubordim rahmat¹².*

O‘TILda berilgan izohda qorga aynan oq kristallcha shaklidagi yog‘in deb izoh berilganidan ham *qor* so‘zini oq yoki oppoq sifatlovchilari bilan qo‘llash mazmuniy takrorligi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, tabiatan ham *qor* faqatgina oq rangda bo‘lishi barchamizga ayon. Bu o‘rinda ta’kidni kuchaytirish, tasvirni go‘zal ifodalash maqsadida she’riy parchada mazkur pleonastik birlik qo‘llangan. Tahlillar va izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, badiiy nutq pleonastik birliklar salmoqli qo‘llanadigan soha hisoblanib, pleonazm ifodani, tasvirni boyituvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bobning so‘nggi bo‘limi “**Tibbiy pleonastik birliklar**” deya nomlangan. So‘nggi yillarda tilshunoslikning boshqa sohalar bilan aloqasi, shuningdek, turli yo‘nalishlarning lingvistika bilan integratsiyasi masalalariga e’tibor kuchaygan. Xususan, tiblingvistika tilshunoslikning alohida tarmog‘i sifatida qayd etilmoqda. Izlanishlar tibbiyot xodimlari nutqida ham bir qancha pleonastik birliklar qo‘llanishi, ularning ishlatilish o‘rni, vaziyati va maqsadi mavjudligini tasdiqladi. Tadqiqotdagi tahlil natijalariga ko‘ra, tibbiy pleonastik birliklar uch guruhga ajratildi:

1.Qisqartma (abbreviatura) shaklidagi: *OITS sindromi, O‘RVI infeksiyasi, O‘RK kasalliklari, UTT tekshiruvi.*

2.Kasallik nomini ifodalovchi tibbiy atamaning semasini takrorlovchi: *ko‘z glaukomasi, ko‘z kataraktasi, o‘pka atelektazi, o‘pka pnevmoniyasi, yurak taxikardiyasi, qorindagi meteorizm.*


¹⁰ <https://oriftolib.uz/kutubxona/muhammad-siddiq-rahmatov-kiprigingdan-uzilgan-koz-yosh/?imlo=k>

¹¹ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf – B. 427.

¹² Зуннунова С. Танланган асарлар. Биринчи том. -Т.: 1976. – Б.11.


3.Evfemik perifraza shaklidagi: “*giyohvandlik – asr vabosi; moxov – rangsiz maydon; amneziya – teshik xotira; astma – hushtakli tovush; bavonsil – shohlarning kasali, gijja – ichki dushmanlar*”¹³.

Mazkur uch guruhdan birinchisi – qisqartma shaklidagi pleonastik birliklar tamoman ortiqcha nutqiy kamchilik sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi guruh pleonazmlari diskurs talabidan kelib chiqib muayyan uslubiy vazifa bajaradi. Bu esa quyidagi rasmda aniqroq ko‘rinadi(2-rasm):



2-rasm. Tibbiy pleonastik birliklar tasnifi

Diskursdagi pleonazmlarni o‘rganish jarayonida 200dan ortiq pleonastik birliklar to‘planib, guruhlariga ajratildi. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra, maishiy nutqda – 35%, badiiy nutqda – 31%, tibbiy pleonastik birliklar – 26%, ilmiy nutqda –10%, siyosiy nutqda pleonazmlar 8% ni tashkil etishi aniqlandi (3-rasm):



3-rasm. Pleonastik birliklarning diskurs kesimidagi ulushi


Tahlillar natijasi tibbiy nutqda pleonastik birliklarning qo‘llanish shakllari turlichaligini ko‘rsatdi. Xususan, boshqa sohalarga qaraganda, tibbiyotda semantik

¹³ Кобилова А.Б. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида тиббий перифразаларнинг хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро-2022.-Б.41.

ortiqchalik qisqartma (abbreviatura)lar bilan birgalikda, uning o'zida izohlangan birlikning mazmunini takror tarzda qo'llash holati ko'p uchrashi qayd etilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Ortiqcha qo'llangan birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda pleonastik birliklarning qo'llanishiga ta'sir ko'rsatuvchi pragmalingvistik omillar diskursiv tahlil qilingan. Ommaviy axborot vositalarida mavjud pleonazmlar lingvopragmatik jihatdan ma'noviy guruhlariga ajratilgan.

Uchinchi bobning birinchi bo'limi **“Pleonastik birliklardagi lingvopragmatik omillar”** deb nomlangan. Ch.Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi. Ch.Pirsning talqinicha, belgining munosabat maydoni uch yo'nalishdan iborat: 1) belgi, aniqrog'i – reprezentamen, biror narsaning o'rnini almashtiruvchi moddiy ko'rinishga ega bo'lgan vosita; 2) idrok etuvchining ongidan o'rin olgan va belgining tavsifini beruvchi vosita – interpretanta; 3) belgida aks topayotgan obyekt. Ushbu munosabatlar maydonini quyidagi shaklda tasvirlash mumkin (4-rasm):



4-rasm. Belgining uch tomonlama munosabat maydoni

